



MORFOLOGIK KATEGORIYALAR TAHLILI

To'xtayeva Maftuna Erkin qizi

Termiz davlat universiteti talabasi

Ilmiy rahbari: **D.Ergasheva**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qahhor “Bemor” hikoyasidagi olmosh soʻz turkumidagi morfologik kategoriyalar tahlili ochib berilgan. Olmosh turlari, gapdagi vazifasi, qaysi soʻz turmuki oʻrnida kelgani, tuzilishiga koʻra turlari, va gapdagi vazifasi keltirib oʻtilgan.

Kalit soʻzlar: Grammatik kategoriyalar, morfologik kategoriyalar, morfologiya, kategoriya, ot kategoriyalari.

Soʻzning maʼlum turkumga mansubliginin koʻrsatuvchi , soʻzning maʼlum bir grammatik shaklini ifodalaydigan, gapda qanday vazifa bajarishini bildiradigan maʼno grammatik maʼno hisoblanadi.

Bir-biriga qiyosan olinadigan ikki yoki undan ortiq grammatik maʼno bilan shu maʼnoni ifodalovchi grammatik shakllari tizimi grammatik kategoriya deyiladi. Gramatik kategoriyalarni morfologik kategoriyalar va sintaktik kategoriyaga ajratishimiz mumkin.

Morfologik grammatik kategoriyalarga, birinchidan, soʻz turkumlarining oʻzi, yaʼni ot, sifat, son, feʼl kabilar kirsar, ikkinchidan, maʼlum bir turkumga xos boʻlgan



kategoriyalar, ya'ni otlarga xos bo'lgan son, egalik, kelishik kategoriyalari, fe'llarga xos bo'lgan bo'lishli-bo'lishsizlik, nisbat, mayl, zamon, shaxs-son kategoriyalarni kiradi.

So'z turkumlarining morfologik belgisi yoki morfologik xususiyati deganda, u yoki bu so'zga xos bo'lgan grammatik kategoriyalar, mazkur so'zlarga xos forma yasovchi, so'z o'zgartiruvchi affiksial morfemalar tushuniladi (forma yasovchi-so'z formalarini hosil qiluvchilar -lar, so'z o'zgartiruvchi-forma yasovchilarning sintaktik munosabat ifodalaydigan turi tushiniladi, kelishik affikslari, shaxs-son affikslari. Masalan, qizil, katta, ishlamoq, etmoq, uy, daraxt so'zlarini olamiz va ularga quyidagi qo'shimchalarni qo'shib ko'ramiz:

-roq;

-di, -i(b);

-gan;

So'z turkumlari — so'zlarning ma'nosi va grammatik xususiyatlariga ko'ra turlarga bo'linishidir. 1. Mustaqil so'z turkumlari: ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish. 2. Yordamchi so'z turkumlari: bog'lovchi, ko'makchi, yuklamalardir. 3. Modal so'zlar. 4. Undovlar. 5. Taqlid so'zlar. O'zbek tilshunosligida morfologik vositalarning o'rganilishi va uning so'z turkumlari tizimida tutgan o'rni, tarixiy shakllari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, tabiati, badiiy matnlarda uchrashi ayrim maqolalarda ham o'z ifodasini topgan. M. Asqarova, S. Ibrohimov, G'. Karimov, S. Muhamedov, M. Temirova, B. Ubaydullayev, U. Sharipova, Q. Mahmudov, H. Hojiyeva, D. Hakimova kabi tilshunoslarning maqolalari shular jumlasidandir.

Ot — shaxs va predmet tushunchasini ifodalovchi so'z turkumi. Karim, kitob, sevgi. Otlarning ma'no turlari: 1. Atoqli otlar: shaxs, joy, tarixiy voqea, asarlar, astronomik nomlar, atab qo'yilgan nomlar: Shohista, Toshkent, Navro'z bayrami, "Kecha va kunduz" romani, Cho'lpon yulduzi, Arslon. 2. Turdosh otlar : bir turdagi narsa va hodisalarning umumiy



nomi: kitob, daftar, daraxt, shahar Erkalatish, suyish ma'nolari -gina, -kina, -qina qo'shimchalari orqali ifodalanadi: Tentakkinangiz savlatlikkina yigit bo'lib qaytdi-ya, sallotlikdan. (Gl. G'.) Erkalatish ma'nosi ayrim atoqli ot, hayvon, o'simlik nom-lariga egalik qo'shimchasini qo'shish bilan ham ifodalanadi: Kechir, arslonim, hoziruyingga bormoqchi edim. (O.) Oyqizginam, sen-bilan maslahatlashadigan ishlarim ko'payib ketdi. (Sh. R.) Kelinglar, qizaloqlarim, gullolalarim, o'tiringlar. (O.) Ba'zan -jon va -xon qo'shimchalari ham mazmunga qarab erkalatish, suyish ma'nosini anglatadi: Yulduzxon, sent izlab yurgan edim, tasadduq! (O. Y.).

O'zbek tili nazariy morfologiyasining asosiy xususiyatlari, vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Til-nutq zidlanishi asosida umumiylik-xususiylik, imkoniyat-voqelik, dialektik munosabatining morfologik sathida namoyon bo'lishini ko'rsatib berish.
2. Morfologiya morfologik birliklar munosabatiga tayanadi
3. Til birliklari o'rtasidagi uch xil munosabat tadqiqot markazida bo'ladi: Qatorlanish (sintagmatik), buyruqlanish (paradigmatik), pog'onaviylik (iyararxik). Qatorlanish – til birliklarining ketma-ket joylashuvi. Guruh'lanish munosabati ma'lum birlashtiruvchi belgi asosida muayyan sinfda birlashtiruvchi birliklar o'rtasidagi munosabat sanaladi. Pog'onaviylik-kichik birliklarning o'zidan kattaroq birliklar tarkibiga kirish munosabati. Bu munosabat butun va bo'lak munosabatini namoyon etadi.
4. Morfologik birliklarning birlashtiruvchi va farqlovchi belgilari ularni ma'lum paradigma tarkibida zidlash asosida aniqlanadi. Shuning uchun ham har qanday grammatik paradigma zamirida zidlanish yotadi. Tilshunoslikning vazifasi ana shu zidlanish belgilarini ochishdan iborat. Bu zidlanishlar nutqiy konkret ma'nolar asosida emas, balki grammatik (morfologik) shaklning umumiy-lisoniy ma'nosi asosida quriladi. Umumiy-lisoniy ma'nolar esa o'zaro



mutanosib grammatik shakllarning aloqadorligi asosida ochiladi. Chunonchi, birlik son bilan ko‘plik son shakllarining nutqiy ma’nolarini qiyoslasak:

Birlik son	Ko‘plik son
Kitob	kitoblar
1ta kitob	ko‘p kitob

R.Sayfullayeva o‘zbek tilshunosligida tilimizdagi 9 ta Grammatik kategoriya mavjudligini ta’kidlaydi:

- 1) nisbat kategoriyasi;
- 2) o‘zgalovchi kategoriyasi;
- 3) harakat tarzi kategoriyasi;
- 4) bo‘lishli-bo‘lishsizlik kategoriyasi ;
- 5) son kategoriyasi;
- 6) daraja kategoriyasi;
- 7) kelishik kategoriyasi;
- 8) egalik kategoriyasi;
- 9) kesimlik kategoriyasi;
- 9.1) shaxs-son;
- 9.2) zamon;
- 9.3) tasdiq-inkor;
- 9.4) mayl;



Morfologik tahlil deyilganda soʻzni turkumlarga ajratish, har bir turkumga xos grammatik kategoriyalarni aniqlash koʻzda tutiladi. Soʻz turkumlarini tahlil qilish tartibini anglash juda muhimdir. Har bir soʻz turkumiga aloqador belgilarni sanash tartibi tasodifiy boʻlmasligi kerak. Har bir turkumning xilma-xil belgilari ichida, ularning butun soʻzga, uning har qanday shakliga ham taalluqli boʻlgan doimiy belgilari hammadan avval ajratilishi zarur. Masalan: ot turkumiga xos atoqli yoki turdosh, muayyan yoki mavhum boʻlishi, kim? nima? soʻrogʻini olish faqat otgagina tegishli boʻlib, bular uning doimiy belgisi hisoblanadi va ot turkumining umumiy tavsifini tashkil etadi. Morfologik tahlilda dastlab soʻzning boshlangʻich holati aniqlanadi va umumiy xarakteristika beriladi: uning doimiy belgilari sanaladi. Soʻng soʻz shaklining belgilari tahlil qilinadi. Oxirida ,agar soʻz gap ichida kelgan boʻlsa, uning sintaktik aloqasi va vazifasi tahlil etiladi.

Olmosh turkumi tahlili tartibi

1. Maʼnosiga koʻra turi
2. Kelishigi
3. Egalik va grammatik soni
4. Qaysi soʻz turkumi oʻrnida kelganligi
5. Tuzilishiga koʻra turi
6. Gapdagi vazifasi.

MORFOLOGIK TAHLIL. Abdulla Qahhor “Bemor” hikoyasida olmosh soʻz turkumlari tahlili.

1. Bularning hammasi, albatta, pul bilan boʻladi.

Bularning- olmosh, koʻrsatish olmoshi, qaratqich kelishigida, tuzilishiga koʻra sodda, gapdagi vazifasi qaratqich-aniqllovchi.



Hammasi-olmosh, belgilash olmoshi, egalik III-shaxs, tuzilishiga ko'ra sodda, gapdagi vazifasi kesim.

1. Bunday vaqtlarda yo'g'on cho'zilib , ingichka uziladi.

Bunday-olmosh, ko'rsatgich olmoshi, -day o'xshatish qo'shimchasi, tuzilishiga ko'ra sodda, gapdagi vazifasi sifatlovchi-aniqlovchi.

2. Sotiboldi xo'jayning oldiga arzga bordi, ammo bu borishdan muddaosi nima ekanini aniq bilmas edi.

Bu- olmosh, ko'rsatish olmoshi, bosh kelishikda, tuzilishiga ko'ra sodda, gapdagi vazifasi hol.

Nima-olmosh, so'roq olmoshi, tuzilishiga ko'ra sodda, gapdagi vazifasi hol.

3. -Devonai Bahavaddinga hech narsa ko'tardingmi?

Hech narsa-olmosh, bosh kelishigida, tuzilishiga ko'ra qo'shma, gapdagi vazifasi hol.

4. U ertadan-kechgacha oftobshuvoqda gavronlar ichiga ko'milib savat to'qiydi.

U – olmosh, bosh kelishikda, tuzilishiga ko'ra sodda, gapdagi vazifasi ega.

6. Hammayoq jim.

Hammayoq- olmosh, - yoq affiksi bilan, tuzilishiga ko'ra sodda , gapdagi vazifasi hol.

7. Yana ko'zini yumdi, shu yumgancha qaytib ochmadi-saharga borib uzildi.

Shu – olmosh, bosh kelishikda, yuzilishiga ko'ra sodda , gapdagi vazifasi hol.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Шоадурахмонов Ш, М.Асқарова Ҳожиёв А, Расулов И, Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм, – Т.: Ўқитувчи, 1980
2. Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Т.: ФАН, 1984.
3. Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. –Т.: ФАН, 1975
4. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1962, 1978.
5. Нурмонов А. Танланган асарлар. II жилд. – Тошкент: “Akademnashr”, 2012.
6. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Т.: 2013
7. Гуломов А., Қодиров М. Она тили ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 2001
8. Ҳозирги замон ўзбек тили. – Т.: ФАН, 1957.
9. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-китоб, – Т.: ФАН, 1966.
10. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev , G. Boqiyeva , M.Qurbonova , Z. Yunosova , M. Abuzalova “ Hozirgi o`zbek adabiy tili “ – Toshkent. 2009
11. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va b. Hozirgi o`zbek adabiy tili. -Т., 2010. О`қув қо`лланма. О`зМУ ИК